

**“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID  
MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALALARING YORITILISHI”**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

**SAID RIZO ALIZODA PUBLITSISTIKASIDA IJTIMOIY-SIYOSIY  
MASALALAR TALQINI**

Sayyora Halimova  
*O'zJOKU, dotsenti v.b.*

*Annotatsiya:* Mazkur ilmiy maqolada jadid matbuotining yirik namoyandalaridan biri, muharrir va publitsist Said Rizo Alizodaning ijtimoiy-siyosiy maqolalari tahlil etilgan. Publitsistning Turkistonni chor Rossiyasi va bolsheviklar hukumati tomonidan mustamlaka qilinishi, vatanparvarlikning millat o'zligini saqlab qolishdagi muhim ahamiyatiga doir ilg'or g'oyalari o'rganilgan.

*Kalit so'zlar:* jadidlar, maorif, , publisistika, teatr, milliy matbuot, adabiyot, bolshevik, milliy chegaralanish, tarjimon

Said Rizo Alizoda – XX asr boshlarida Samarqand madaniy hayotining yetuk namoyandalaridan biri, taniqli olim, tarjimon, jurnalist, muharrir va muallim, shuningdek, milliy matbuotning shakllanishiga beqiyos hissa qo'shgan ijodkordan biridir. U Mahmudxo'ja Behbudiyy, Siddiqiy-Ajziy, Xoji Muin, Vadud Mahmud, Ismatullo Raxmatullayev va Abdulhamid Majidiy kabi samarqand ijtimoiy-madaniy hayotida milliy uyg'onish harakatining yetakchilaridan biri sanaladi. Nuqtodon olim, ulug' ma'rifatparvar, o'zbek publitsistikasining asoschilaridan biri, 14 tilni yaxshi bilgan, zehnli, xotirasi kuchli, tirishqoq, o'z ustida tinimsiz ishlaydigan qalban ziyoli inson bo'lgan. U yoshligidan o'zbek, tojik, rus tillarida matbuotga maqolalar yozib, Behbudiyning "Samarqand" gazetasi, "Oyina" jurnalida eng yaqin hamkor bo'lgan. 1914 yilda "Telegraf xabarları" nomli varaqani o'zbek tilida o'z hisobidan chiqargan, 1917 yilda "Sharq" gazetasiga muharrir, "Hurriyat" gazetasida tarjimon va muxbirlik qilgan. 1922 yildan "Zarafshon" gazetasida bo'lim mudiri, "Ovozi tojik" gazetasi asoschilaridan biri, 1919 yili esa "Sharq mash'ali" nomida haftalik jurnal tashkil etadi. Jurnal forsiy va tojik tillarida bo'lib, 4 ming nusxada O'rta Osiyo, Afg'oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, bir qancha arab mamlakatlariga tarqalgan. Said Rizo Alizodaning Bahlul, Zambur, Ranjbar, Bog'ishamoliy, Shapaloq, S.A. nomli taxalluslari bo'lgan. Said Rizo Alizoda matbuotni xalqni uyg'otuvchi, kurashga chorlovchi vosita, deb bilgan. U o'zining maqolalaridan birida: Muallim va muharrir millatning ikki qo'lidur”,<sup>1</sup> - deya ta'lim va jurnalistikaning jamiyatdagi o'rnini yuksak baholaydi. Publitsist "Oyina" jurnalining 1914 yil, 35-sonida chop etilgan "Har millat o'z tili ila fahr etar" maqolasida har bir millat o'z tilini ko'z qorachig'iday asrashi lozimligini uqtiradi: "Agarda til va adabiyotimizni muhofaza qilmay, anga ajnabiy lug'at va so'zlarni qo'sha bersak, bir oz zamonda til va milliyatimizni yo'qoturmiz.

<sup>1</sup> Muallim va muharrir millatning ikki qo'lidur. -T.: Mashhur-press, 2017. - B.19

# “MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Milliyatimizni yo‘qotganda diyonatimiz o‘z-o‘zi ila albatta yo‘qolur. Bas, bizga tilimizni ajnabiy so‘zlardan muhofaza qilmoqlik eng birinchi muhim bir vazifadir”<sup>2</sup>-deb millatdoshlarining ertangi taqdiri haqida qattiq qayg‘uradi. Shuning uchun ham dastlabki maqolalaridayoq u Turkistondagi ta’lim tizimi, ayniqsa, boshlangich ta’lim to‘g‘risida tanqidiy fikrlarini bildirgan. Millatning kelajagi bo‘lgan yosh avlod tarbiyasida tashabbuskor, ilg‘or fikrli mudarrislar, darsliklar zarurligini, eski va yangi usuldagagi maktablarni qiyosiy tahlil etish asosida o‘qitish metodikasining muhim ahamiyatini ko‘rsatib bergen. Ma’rifat darg‘asi haqli ta’kidlaganidek, mакtab siyosatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish jamiyat taraqqiyotining asosiy poydevori hisoblanadi. “Ammo biz Turkiston musulmonlari, - deb yozgan edi S.Alizoda, - nainki jadida maktab va madrasa ochayapmiz, balki hanuzgacha, ularni bid’at va harom sanayapmiz. Bilmayman, biz Turkiston musulmonlariga nima bo‘lgan? Ey, turkistonlik birodarlar! Ey, yurtdoshlar! G‘aflat qachongacha! Jaholat qanchalik!”<sup>3</sup>-deya bong uradi. Yana bir e’tiborli jihat, S.Alizoda birgina ma’rifat tarqatish yo‘li bilan ijtimoiy tuzumni qayta kurish, xudbin, o‘z xalqiga xiyonatkor sinflarni yo‘qotish mumkin emasliganni yaxshi tushungan. Uning bu -hakdagagi fikrlari “Buxoro voqealari to‘g‘risida” maqolasida o‘z aksini topgan. Muallif Buxoro zamini qoloklik va nodonlik bilan to‘lib-toshganligidan afsus nadomatlar chekadi.Bir tomondan mustabidlik zulmi, ikkinchi tomondan mahalliy amaldorlar zulmi ostida qolgan xalq taqdiriga kuyinib, Vatanga sodiq, tadbirkor, ziyoli yoshlar ulg‘ayishidan umid qiladi.Publitsistning aynan mana shu ruhdagi yana bir maqolasi “Shu’lai inqilob” jurnalining 1919-yil 4-sonida “Turkiston-bizning vatanimiz” sarlavhasi bilan chop etilgan. Unda shunday yozadi: “Bizning Vatanimiz taqdiri zulmkor chor hukumati qo‘lida bo‘lganida, Vatanimiz tuprog‘ini kelgindilar toptaganida, nomusi o‘zgalarning qonli changalida azob tortganida, Vatanning jigarni qon qiluvchi nolalari bizga ta’sir qilmasdi.”<sup>4</sup> . Bu bilan muallif mamlakatda kechadigan zulm vaadolatsizlik odamlardan vatanparvarlik tuyg‘usini ham tortib olishiga ishora beradi. Millat farzandlarini ogohlikka, vatan or-nomusi uchun kurashga chorlaydi. Maqola davomida “shu yerning ob-havosidan bahramand bo‘lub kamol topsang-u, uning sharafini himoya qilmasang, oyoq osti bo‘lishiga, qadrsizlanishiga yo‘l qo‘ysang..... sen bu Vatanning nomusli va sodiq farzandi emassan”<sup>5</sup>, deb qat’iy xulosa qiladi. O‘zi esa yurtga bo‘lgan muhabbatini, sadoqatini ilmi, ezgu amallari bilan isbotlashga harakat qilgan. U nafaqat muharrir, jurnalist, publitsist, mohir tarjimon, qomusiy olim sifatida Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” va “Mehrobdan chayon”

<sup>2</sup> “Oyina” jurnali, 1914 yil, 35-son.

<sup>3</sup> “Hurriyat” gazetasi, 1918 yil, 1918 yil, 56-son

<sup>4</sup> “Shu’lai inqilob” jurnalining 1919-yil , 4-son

<sup>5</sup> “Shu’lai inqilob” jurnalining 1919-yil , 4-son

# “MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALAR LARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

nomli romanlarini birinchi bor tojik tiliga tarjima qilgan. Bundan tashqari A.Pushkinning “Kapitan qizi”, “Yevgeniy Onegin”, “Bo‘ron”, “Belkin qissalari” L.Tolstoy, A.Chexovning hikoyalarini va yana boshqa ko‘plab jahon adabiyotining durdona asarlarini o‘zbek va tojik tillariga tarjima qilgan. Uning yana bir faxrlansa arzigulik xizmati, Firdavsiy, Sa’diy, Nizomiy, Fuzuliy, hazrat Navoiy kabi buyuk mutafakkir allomalarining shoh asarlarini rus tiliga tarjima qilgan. 1920 yil “Tayoq” gazetasining 1920 yil 1-sonida bosilgan feletonida “Bolsheviklarning hukumat oti bilan qilg‘on hiyonat va fisqlari” musulmon xalqini musibat va balolar, mudhish oqibatlarga olib kelishini bashorat qilgan”<sup>6</sup>. Bolsheviklar siyosatiga shubha bilan qarovchi o‘tkir maqola, feleton, pamfletlar yozish uchun ko‘p tilni bilishdan tashqari keng dunyoqarash, qomusiy bilim, jasorat kerak edi. Said Rizo Alizodada ”Turkiston musulmonlarining fojeasi”, ”Xalq sog‘lig‘ini saqlash”, ”Haqsiz hujumga javob”, ”Rad qilish”, ”Mahalliy burjuaziya ishchi-dehqonlarni aldayapti”, ”Turkistonni g‘alla bilan ta’min qilaylik”, ”Yasama vakillar”, ”Milliy chegaralanish” kabi maqolalarida mamlakatda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga xolis baho berdi, teran aql va siyosiy xushyorlik bilan tahlil eta oldi. Publitsistning ”Zarafshon” gazetasining 1924 yil, 12 sentyabr sonida ”Milliy chegaralanish” sarlavhali maqolasi berilgan. Maqolada 1924 yilda markaziy firqa tomonidan O‘rta osiyoni milliy chegaralash to‘g‘risida” qarori muhokama qilinadi. Ushbu masala yuzasidan Said Rizo Alizoda ”markaz firqa qo‘mitasining har millatlarga o‘ziga jumhuriyat qurish to‘g‘risida ochg‘on yo‘lini to‘g‘ri deb topamiz”<sup>7</sup>- deb yozadi. Ishonamizkim: milliy chegaralanishlar tuzilgandan keyin o‘rtadag‘i milliy nizolar ko‘tarulub uning o‘rnida madaniy yuksalish va sinfiy surunlashar orqasida har millat o‘z maqsadiga erushar”. Bu o‘rinda bolsheviklar dastlab, o‘z manfur qiyofalarini yashirishga, mahalliy ziyorilar ishonchini qozonishga harakat qilganligini guvoh bo‘lamiz. Muallif maqola so‘nggida ”Qozog‘iston jumhuriyati bilan O‘zbekiston jumhuriyatining iqtisodi alohida bo‘lishlari lozim topuldi. Bu o‘rta osiyo xalqlarining saodatidur” deya yakun qiladi. Ulkan iste’dod sohibi Turkistonda olib borilgan milliy islohot, milliy matbuot va teatr ishlarida juda faol qatnashgan. Jumladan, 1916-1922 yillarda Behbudiyning ”Padarkush”, Molerning ”Zo‘raki tabib”, Uzeir Hojibekovning ”Arshin mol olan”, ”Layli va Majnun”, ”Asli va Karam” Husayn Jovidning ”Shaydo”, ”Shayx san’on” asarlarini sahnaga qo‘yishda jonbozlik ko‘rsatib, hatto ayrim rollarni aktyor sifatida ijro etgan. Afsuski, bolshevik balosi bu ajoyib ma’rifatparvar hayotini ham zulmatga chulg‘adi. 1938 yilda Samarqand davlat universitetida dars berib turgan chog‘ida josuslikda ayblab, hibsga olishadi. Tergov ikki yillik qiyonoqlarda kechadi.

<sup>6</sup> Muallim va muharrir millatning ikki qo‘lidur. -T.: Mashhur-press, 2017. - B.24

<sup>7</sup> ”Zarafshon” gazetasi, 1924 yil, 12 sentyabr soni

# “MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALAR LARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Ammo unga birorta ayb qo‘yisha olmaydi. Shunga qaramasdan uni besh yil qamoq jazosiga hukm qilishadi. Ma’rifatparvar avvaliga Tobolsk, keyinchalik Vladimir shahridagi turmalarda yakka kameralarda azob chekadi. 1945 yilda o‘pka silidan turmada vafot etadi”<sup>8</sup>. 1977 yildagina Said Rizo Alizodaning tabarruk nomi oqlandi. Nabirasi Farhod Alizodaning jamlagan manbalardan birida bobosining 1945-yilda qamoqxona azoblarini boshidan kechirayotgan paytda yozgan ushbu satrlarini topib oladi: Unda shunday satrlar bor-

Ey falak, oxirda etting xonu monimdin judo,  
Ammo qurbing yetmagay etmoqqa sha’nimdan judo<sup>9</sup>.

Darhaqiqat, ulug‘ ma’rifatparvar, alloma, serqirra publitsist va muharrir Said Rizo Alizoda butun umrini Vatan sha’ni, yigitlik or-nomusi, farzandlik sadoqatiga baxsh etdi. Uning benazir ijodiy merosini o‘rganish, yosh avlodlarga yetkazish milliy jurnalistikamiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

## Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Do‘stqorayev B. O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi. -Darslik. -T.: G‘ulom nomidagi matbaa-nashriyot uyi, 2009.
2. Qosimov B. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. - T.: Ma’naviyat, 2004.
3. Muallim ila muharrir millatning ikki qo‘lidur. -T.: Mashhur-press, 2017.
4. Samarqand ijodkorlari. -T.: Mashhur-press, 2018.
5. Zarafshon muharrirlari.-T.: Sahhof, 2023.

<sup>8</sup> Muallim va muharrir millatning ikki qo‘lidur. -T.: Mashhur-press, 2017. - B.19

<sup>9</sup> Muallim va muharrir millatning ikki qo‘lidur. -T.: Mashhur-press, 2017. - B.25